

**AGROBIZNES YO‘NALISHI TALABALARINI TADBIRKORLIKKA
JALB QILISH VA ULARDA INNOVATSION TAFAKKURNI
SHAKLLANTIRISH**

Ergasheva Umida Asad qizi
Termiz agrotexnologiyalar va
innovatsion rivojlanish instituti talabasi

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish orqali xalqning turmush darajasini yaxshilash, aholining real daromadlarini oshirish orqali ularning bandligini ta'minlash bugungi kunning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yurtimizda so'ngi yillarda zamonaviy bozor iqtisodiyoti asosida rivojlanayotgan bir qator mamlakatlarda yirik korxonalar bajargan avvalgi ko'p vazifalarni mobil, ya'ni ixcham, kichik korxonalar tomonidan amalga oshirish jarayoni xorijiy ekspertlar tomonidan ijobiy baholanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, yirik sanoat korxonalari sonining qisqarib, kichik korxonalar sonining keskin sur'atlarda ortib borishiga zamin bo'lmoqda.

Bu jarayon bozor iqtisodiyotining dinamik, harakatchan, yangiliklarga hozirjavob tarzda o'sishi, bozordagi talab va uning o'zgarishiga tez moslashuvchan bo'lishni ta'minlamoqda. Shunga muvofiq, O'zbekistonning xorijiy mamlakatlar korxonalari bilan raqobatbardoshlik darajasi ortishiga imkon beradigan eng muhim omillardan biri kichik korxonalar butun bir tarmog'ini vujudga keltirishga imkon beradigan qulay shart-sharoitlarni yaratishdan iborat bo'lib, bunday korxonalar yig'indisi sog'lom raqobatli bozor muhitini yaratish imkonini bermoqda. Demak, mamlakatimiz mintaqalarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi korxonalar alohida e'tibor qaratish, bu jarayon yangi innovatsiyalar, tashabbuskorlikni talab etishini anglab yetish, ayni shu asosda iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashga erishish muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday ekan, mintaqalardagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullanadigan korxonalar rahbarlari fan va texnika sohasidagi eng so'nggi innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishlari dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Agrobiznes yo'nalishi talabalarini tadbirkorlikka jalb qilish va ularda innovatsion tafakkurni shakllantirish oliy ta'lim professor-o'qituvchilarining oldiga qo'ygan maqsadlaridan biridir. Bugungi kunda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish

istagi bo'lgan yoshlarimiz uchun, siyosiy, iqtisodiy va huquqiy jihatdan yetarli hamda jahon andozalariga mos keluvchi barcha imkoniyatlar yaratilgan. Ayniqsa, so'ngi yillarda tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi yoshlarga soliq, kredit va boshqa sohalarda berilayotgan imtiyoz, kafolat va preferentsiyalar jahonning biznes yuritish borasidagi eng liberallashtirilgan mamlakatlardan qolishmaydi. Bu esa yoshlarni tadbirkorlik ishlari bilan band bo'lishiga asos bo'ladi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, bugun barchamiz guvohi bo'lib turganimizdek, zamon tez va shiddat bilan rivojlanmoqda. Har qaysi sohaga qaramaylik rivojlanish, o'zgarish va yangilikni ko'ramiz. Bu esa ayovsiz raqobatga bardosh bera olish, tashabbuskorlik, yangilikka intilishni va o'z ustida tinmay mehnat qilishni talab etadi. Shu o'rinda alohida qayd etish joizki, yoshlar bugungi va ertangi hayotimizning hal qiluvchi kuchidir. Yoshlarimiz tadbirkorlik faoliyatining barcha sir-sinoatlarini qanchalik mukammal egallasa, mamlakatimizning ertangi itisodiy hayoti shunchalik yuksaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasining qonuni "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida" Toshkent. sh., 2016 yil 14 sentyabr
2. Islom Karimov. Tarixiy xotira va inson omili – buyuk kelajagimizning garovidir. – T.: "O'zbekiston" NMIU, 2012yil. 143 b.
3. A. O'lmasov, A. Voxobov. "Iqtisodiyot nazariyasi" – T.: «Sharq» 2014yil, 4-6 bet